Maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorlarini menejerlik faoliyatiga tayyorlashning ahamiyati ........ 716
**Dusmaxamedov Abdujalil Abdusabirovich**

Davlat korxonasini xo'jalik jamiyatiga o'zgartirishning foydali jihatlari ........ 720
**Z.D. Sanjarov**

The role and main types of agricultural tourism in Uzbekistan ........ 724
**M.Xolmuratova, G.N.Tojiyeva**

Цифровые технологии как драйвер повышения эффективности банковского маркетинга ........ 727
**Кахрамонов Хуршиджон Шухрат угли, Маннабова Хулкар Фарход кизи**

Потребительская стоимость товаров в условиях экономики Узбекистана ........ 735
**Мусаева Шоира Азимовна**

Valyuta risklarini boshqarishda metching siyosatining ahamiyatini oshirish ........ 739
**Yaxyayev Ziyodilla Lutfullayevich**

Yangi o'zbekiston iqtisodiyotida xususiy tadbirkorlikning roli va ahamiyati ........ 744
**Azimova Shoxista Salohiddinovna**

Improving the methodology for assessing the financial stability of banks ........ 750
**Sharipova N.H.**

Инструменты стратегического планирования и прогнозирования в управлении ООО "MTE TECHNIK": оценка и повышение финансовой стабильности ........ 757
**Нишонова Муниса Одилжон кизи**

Актуальные вопросы налоговой политики ........ 763
**Бердыева Угулой Абдурахмоновна**

Ilm-fanni moliyalashtirish va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi ........ 768
**Ramazonov Javohir Bekzod o'g'li**



# ILM-FANNI MOLIYALASHTIRISH VA INNOVATSIYALARNI QO‘LLAB-QUVVATLASH JAMG‘ARMASI

**Ramazonov Javohir Bekzod o‘g‘li**
O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi
“Davlat moliyasi va xalqaro moliya” mutaxassisligi magistranti
ORCID: 0009-0004-9332-3964

Annotatsiya: Ushbu maqola O‘zbekistonda ilm-fanni moliyalashtirishning hozirgi holatini tahlil qilish, davlat siyosatining rolini o‘rganish, mavjud institutlarning samaradorligini baholash hamda ilmiy tadqiqot va innovatsiyalarni moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytirish yo‘llarini aniqlashga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: Jamg‘arma, davlat siyosati, ilm-fan va innovatsiyalar, davlat boshqaruvi, tashkiliy tuzilmasi.

Abstract: The purpose of this article is to analyze the current state of science funding in Uzbekistan, examine the role of public policy, assess the effectiveness of existing institutions and identify ways to expand funding opportunities for scientific research and innovation.

Key words: Foundation, public policy, science and innovation, public administration, organizational structure.

Аннотация: Целью данной статьи является анализ текущего состояния финансирования науки в Узбекистане, изучение роли государственной политики, оценка эффективности существующих институтов и выявление путей расширения возможностей финансирования научных исследований и инноваций.

Ключевые слова: Фонд, государственная политика, наука и инновации, государственное управление, организационная структура.

## KIRISH

Ilm-fan rivojisiz yuksak taraqqiyotga erishib bo‘lmaydi. Shu sababli dunyo mamlakatlarining aksariyati asosiy e’tiborni ilm-fanni rivojlantirishga, ilm-fan orqali ishlab chiqarishni, sanoatni va boshqa tarmoqlarni yuksaltirishga qaratmoqda.

Ma’lumki, 2019-yil 29-oktyabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ilmiy va innovatsion faoliyatni amalga oshiruvchi tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirish va ularni qo‘llab-quvvatlashning tubdan yangi tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi O’RQ-576-son[1] Farmoni loyihasi ishlab chiqilib, ilmiy jamoatchilik muhokamasiga qo‘yildi.

Mazkur hujjat loyihasi borasida Innovatsion rivojlanish agentligi huzuridagi Ilmiy-texnik axborot markazi direktor o‘rinbosari, texnik fanlar doktori, professor Farhod Rahimov quyidagilarni so‘zlab berdi:

- Davlat siyosati uzluksiz ta’lim-tarbiya tizimiga asoslangan, deydi Farhod Rahimov. - Mazkur yo‘nalishni tubdan isloh qilishda innovatsiyalar va yangi texnologiyalarning o‘rni beqiyos. Chunki innovatsiya taraqqiyotga boshlovchi yo‘l, butun dunyoda, jumladan, O‘zbekistonda ham muammolarning teran anglanishi tufayli paydo bo‘lgan, inson intellektual tafakkurida charxlangan g‘oyadan boshlanuvchi ilmiy-tadqiqot, yangi yaratilgan va huquqiy himoyalangan intellektual mulk obyekti mahsuli, yangilanish va yuksalishlarni ta’minlovchi kuchdir.

Yuqoridagi hujjat loyihasi ilmiy tashkilotlarning moliyaviy qo‘llab-quvvatlash tizimini qayta ko‘rib chiqishni ko‘zda tutadi va ilm-fan hamda innovatsiyalarni rivojlantirishga qaratilgan islohotlarning muhim qismi hisoblanadi.

Bugungi kunda mamlakatimizda ilm-fan va innovatsiyalar rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash borasidagi chora-

1 https://lex.uz/ru/docs/4571490

tadbirlar, mavjud muammolar va ularni hal etishga yo‘naltirilgan amaldagi boshqaruv tizimini tubdan qayta ko‘rib chiqish, bosqichma-bosqich rivojlantirish bo‘yicha qator ishlar amalga oshirilmoqda. Sababi, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, bevosita raqobatbardoshlik kuchayishi bilan chambarchas bog‘liqdir. Mazkur innovatsiyalarning shakllanishi “muammo-ilmiy g‘oya-intellektual mulk obyekti-standartlar va innovatsiya” innovatsion eko muhit zanjirining samarali ishlashi asosida quriladi.

Farmon loyihasi yangi mexanizmga qaratilgan bo‘lib, ilmiy tashkilotlarni moliyalashtirish bo‘yicha tartib O‘zbekiston Respublikasining davlat budjeti hisobidan ilm-fan xarajatlari uchun ajratilgan mablag‘lar doirasida saqlanayotgan va bazaviy moliyalashtirishga o‘tkazilgan ilmiy tashkilotlarning ilmiy faoliyatini muvofiqlashtirish taklif etilmoqda.

Mazkur islohotlar natijasida, davlat rahbari tomonidan 2022–2026–yillarda O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasi va Innovatsion rivojlanish strategiyasida belgilangan vazifalarning bajarilishi, O‘zbekistonni 2030-yilga kelib Global innovatsion reytingida TOP-50 talikka kirishiga zamin yaratiladi.

Shuningdek, hujjatda yosh olimlarni xorijiy ilmiy stajirovkaga yuborishni tashkil qilishda ham tegishli vazifalar belgilab berilmoqda. Xususan, 2025-yildan boshlab Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan tartibda yosh olimlarni yetakchi xorijiy ilmiy tashkilotlarga qisqa muddatli ilmiy stajirovkalarga yuborish bo‘yicha tanlovlarni tashkil etish, o‘tkazish, saralash va moliyalashtirish Ilm-fanni moliyalashtirish va innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi tomonidan amalga oshiriladi. Qayd etishim lozimki, Ilm-fanni moliyalashtirish va innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan xorijiy stajirovkaga faqat ilmiy faoliyat bilan shug‘ullanayotgan 35 yoshdan oshmagan xodimlar yuboriladi.

Muhim jihati shundaki, loyihalar bo‘yicha tanlovlar e’lon qilinadi va loyihalar dastlabki ekspertizadan o‘tkaziladi. Tanlovdan muvaffaqiyatli o‘tgan amaliy tadqiqotlar va innovatsion loyihalar mahalliy budjetda ushbu maqsadlarga ajratilgan mablag‘lar hisobidan moliyalashtiriladi.

Farmonda yangi O‘zbekiston ma’muriy islohotlari doirasida natijadorlikka yo‘naltirilgan ilm-fan va innovatsion faoliyat sohasi boshqaruv tizimini yaratish, ilmiy va innovatsion jarayonlarni bajaruvchi subyektlarni qo‘llab-quvvatlash yangi tizimini ishlab chiqish, ilmiy-tadqiqot ishlari samaradorligini oshirish, davlat ilmiy dasturlari ijrosini muvofiqlashtirish, shuningdek, ta’lim, ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasini kuchaytirish kabi yo‘nalishlardagi dolzarb muammolarni hal etish zarurati ko‘rsatilgan. Unga ko‘ra, ilmiy tashkilotlarni saqlash bilan bog‘liq barcha xarajatlar 2025-yil 1-yanvardan boshlab davlat budjeti mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladi va ilm-fan xarajatlari uchun ajratilgan mablag‘lar doirasida ilmiy-tadqiqot faoliyati Innovatsion rivojlanish agentligi tomonidan muvofiqlashtiriladi.

Ushbu loyiha ilmiy tashkilotlarning moliyaviy qo‘llab-quvvatlash tizimini qayta ko‘rib chiqishni ko‘zda tutadi va ilm-fan hamda innovatsiyalarni rivojlantirishga qaratilgan islohotlarning muhim qismi hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, mazkur hujjat ta’lim darajasi va sifatini oshirishda davlatning istiqbolini belgilab beradigan muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Ilm-fan rivoji uchun sarflanadigan mablag‘ esa xarajat emas, balki kelajak kamoloti uchun qo‘yilgan eng samarali sarmoyadir [1].

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Innovatsiyaviy nazariyani asosiy rivojlanish bosqichi V. Zombart, V. Mitcherlix, Y. Shumpeter ishlariga to‘g‘ri kelgan. Innovatsiyalar nazariyasini shakllanishi va rivojlanishiga avstriyalik olim Y. Shumpeter katta hissa qo‘shgan. 1930-yillarda Y. Shumpeter tomonidan innovatsiya tushunchasi kiritildi va u mahsulot ishlab chiqarish, sotish, yetkazish jarayonlarida yangi yoki takomillashtirilgan texnik, texnologik, tashkiliy xarakterdagi qarorlarni qo‘llash oqibatida mumkin bo‘lgan o‘zgarishlarni o‘z ichga oladi deb ta’kidlaydi. Y. Shumpeter tomonidan innovatsiyaga berilgan ushbu ta’rifda ishlab chiqarish omillarining yangi kombinatsiyalari to‘g‘risidagi konsepsiyasi, innovatsiyalar nazariyasiga bo‘lgan ikkita eng tarqalgan yondashuvdan birining asosini tashkil etadi. Birinchi yondashuvda yangi omillardan foydalanish to‘g‘risidagi tushunchaga, ikkinchi yondashuvda esa yangi yaratilgan mahsulot va yangi yaratilgan texnologiyaga asoslangandir. Y. Shumpeter “Iqtisodiy rivojlanish nazariyasi” (Theory of Economic Development) nomli mashhur asarida innovatsion jarayon natijasidagi o‘zgarishlarni besh yo‘nalishga ajratib ko‘rsatib bergan. Bu yo‘nalishlar quyidagilardan iboratdir:

- yangi texnik va texnologik o‘zgarishlar yoki ishlab chiqarish jarayonini yangi bozor talablari asosida tashkil etish;
- yangi o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lgan mahsulot turlarini diversifikatsiyalash;
- ishlab chiqarish jarayonlarida yangi xom-ashyolardan foydalanish;
- ishlab chiqarishni tashkil etishda innovatsion boshqaruv usullaridan foydalanish;
- yangi iste’mol bozorlarini shakllantirish [2].

“Innovatsiya” tushunchasiga bo‘lgan ikkinchi yondashuv ishlab chiqarishda muayyan turdagi texnika, texnologiya va boshqa yangi mahsulotlardan foydalanishga asoslanadi. Ushbu yondashuvga asoslanib ayrim olimlar ishlab chiqarish faoliyatini innovatsiyaviy va ilmiy-texnik jihatlaridan biri deb biladilar. Bundan kelib

chiqqan holda "innovatsiya" tushunchasi jarayon hamda natija sifatida tushuniladi. Innovatsiyalar iqtisodiy samaradorligini ta'minlash zaruriyatini hisobga olgan holda, bir qator Rossiyalik iqtisodchilar (M. Ionov, A. Kulagin, V. Loginov) innovatsiyani "xarajatlar tejalishini yoki bunday tejash uchun sharoit yaratilishini ta'minlovchi yangi mahsulot yoki xizmat, ishlab chiqarish uslubi, tashkiliy, moliyaviy, ilmiy-tadqiqot va boshqa sohalardagi yangilik" sifatida ko'rishganlar [3].

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada ilm-fanni moliyalashtirish bo'yicha xalqaro ilg'or tajribalarni o'rganib, O'zbekiston tajribasini chet el mamlakatlarning muvaffaqiyatli modellariga solishtirib, amaliy takliflar ilgari suradi. Maqolada ma'lumotlar izlashda innovatsion iqtisodiyot tizimi darsliklaridan, turli xil internet saytlaridan xususan, https://innofund.uz/ saytidan foydalanildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish bo'yicha davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi 2021-yil 1-apreldagi PF-6198-son Farmoniga ko'ra Innovatsion rivojlanish va novatorlik g'oyalarini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi unga Innovatsion rivojlanish vazirligi huzuridagi Ilmiy va ilmiy-texnik faoliyat natijalarini tijoratlashtirish Prezident jamg'armasini va Innovatsion rivojlanish vazirligi huzuridagi Yoshlar akademiyasining iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasini qo'shib olish yo'li bilan Ilm-fanni moliyalashtirish va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi etib qayta tashkil etilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 1-apreldagi "Ilm-fan sohasidagi davlat siyosati va innovatsion rivojlantirishdagi davlat boshqaruvini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-5047-son[2] qaroriga ko'ra Ilm-fanni moliyalashtirish va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi nizomi tasdiqlangan [4].

Jamg'arma mablag'lari quyidagilarga yo'naltiriladi:

- innovatsion faoliyat subyektlari tomonidan innovatsiyalarni yaratish va ularni joriy qilish;
- ilmiy-tadqiqot, innovatsion, tajriba-konstruktorlik va startap loyihalari;
- ilmiy va ilmiy-texnik faoliyat natijalarini tijoratlashtirish;
- ilmiy laboratoriyalarni zamonaviy yuqori texnologiyaga asoslangan asbob-uskunalar bilan jihozlash;
- ilmiy faoliyatga oid davlat dasturlari doirasida yaratilgan intellektual mulkka bo'lgan huquqlarni (patentlarni) xorijda ro'yxatdan o'tkazish va patentni saqlab turish xarajatlarini qoplash;
- ilmiy-tadqiqot va oliy ta'lim muassasalarining yetakchi elektron ilmiy ma'lumotlar bazalaridan erkin foydalanishni ta'minlash, shuningdek, xalqaro nashrlarda ilmiy natijalarni chop etishga tayyorlash bo'yicha xarajatlarni to'lash;
- O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi huzurida Yoshlar akademiyasi faoliyatini tashkil etish va uning asosiy vazifalarini ro'yobga chiqarish tadbirlari;
- yosh olimlarning yetakchi xorijiy ilmiy tashkilotlardagi ilmiy stajirovkalarini moliyalashtirish;
- O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi (tomonidan jalb qilinayotgan yuqori malakali xorijiy davlatlar mutaxassislarining xarajatlari;
- Vazirlikning Ilmiy-texnika axborot markazini, nashriyotini, shuningdek, Vazirlik qaroriga binoan tashkil etiladigan ilmiy kadrlar tayyorlash va xodimlar malakasini oshirish;
- Vazirlik, uning hududiy boshqarmalari hamda Jamg'arma Ijro etuvchi direksiyasini moddiy-texnik jihatdan ta'minlash, shu jumladan ularning xodimlari malakasini oshirish va xorijiy mamlakatlarga xizmat safarlari xarajatlari;
- Vazirlik, uning hududiy boshqarmalari va tizim tashkilotlari hamda Jamg'arma Ijro etuvchi direksiyasi xodimlarini moddiy rag'batlantirish;
- boshqa tadbirlarni, shu jumladan Vazirlikka yuklatilgan vazifalar va funksiyalarga muvofiq amalga oshiriladigan tadbirlarni moliyalashtirish [4].

So'nggi yillarda respublikada ilmiy va innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash, kadrlar tayyorlash tizimini isloh qilish bo'yicha amaliy ishlar olib borilmoqda, iqtidorli yoshlarni nufuzli milliy hamda xalqaro olimpiadalar, musobaqalar va tanlovlarda salmoqli natijalarga erishishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Yoshlarning ijodiy, intellektual va tadbirkorlik salohiyatini ro'yobga chiqarish, innovatsion g'oyalar, loyihalar va texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy qilish, iqtidorli talabalar, yosh olimlar va tadbirkorlarning innovatsion faoliyatini rag'batlantirish, ilm-fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini kuchaytirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratilmoqda [5].

2 https://lex.uz/docs/5352230

Tadqiqot natijalari shuni koʻrsatadiki, ilm-fanni moliyalashtirishni diversifikatsiya qilish, jumladan, davlat-xususiy sherikliklar va xalqaro grantlarni jalb etish orqali Oʻzbekistonda ilmiy tadqiqot va innovatsiyalarni yanada rivojlantirishga erishish mumkin (1-rasm).




1-rasm. Jamgʻarma tashkiliy tuzilmasi.

Ilm-fanni moliyalashtirish va innovatsiyalarni qoʻllab-quvvatlash jamgʻarmasi mablagʻlari quyidagilar hisobidan shakllantiriladi:

- Oʻzbekiston Respublikasi Adliya vazirligiga patent bojlari, yigʻimlar va soliq toifasiga kirmaydigan boshqa toʻlovlardan kelib tushgan mablagʻlarning 78 foizi;
- Oʻzbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablagʻlari, shu jumladan ilmiy faoliyatga oid davlat dasturlari hamda ilmiy faoliyatga oid davlat maqsadli dasturlarini bajarish uchun ajratilgan mablagʻlar;
- xalqaro moliya tashkilotlari va institutlarining grantlari va kreditlari;
- yuridik va jismoniy shaxslar, shu jumladan chet ellik shaxslarning homiylik xayriyalari;
- vaqtincha boʻsh turgan mablagʻlarni tijorat banklarining depozitlariga joylashtirishdan tushadigan daromadlar;
- qonunchilik hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa tushumlar [4].

Davlat tomonidan olib borilayotgan siyosiy tashabbuslarga qaramay, ilm-fanni moliyalashtirish tizimini samarali tashkil etishda muammolar saqlanib qolmoqda. Xususan, davlat budjetidan ajratilayotgan mablagʻlarning cheklanganligi, xususiy sektorning sust ishtiroki hamda xalqaro hamkorlikning yetarli darajada rivojlanmagani asosiy muammolardandir.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Ilm-fan sohasining rivojlanishi mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotida asosiy oʻrinni egallaydi. Oʻzbekiston ilm-fanini rivojlantirishda davlat tomonidan amalga oshirilgan dasturlar va chora-tadbirlar muhim oʻrin tutadi. Ilm-fanni moliyalashtirish tizimining samaradorligini oshirish, innovatsion texnologiyalarni qoʻllab-quvvatlash, ilmiy-tadqiqot ishlarini rivojlantirish va xalqaro ilmiy hamkorlikni mustahkamlash kabi masalalar dolzarb boʻlib qolmoqda. Mamlakatimizda 2020–2025-yillarda ilm-fanni moliyalashtirish tizimini isloh qilishda yuzaga kelayotgan muammolar va imkoniyatlar har tomonlama oʻrganilishi zarur [6].

O‘zbekiston Respublikasi Ilm-fanni moliyalashtirish va innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi faoliyati doirasida ilm-fan sohasida kengaytirilgan va turli moliyaviy vositalar orqali tadqiqotlarni amalga oshirishga imkon beradigan yangi mexanizmlar ishlab chiqilmoqda. Ammo, ilm-fanni moliyalashtirishning hozirgi tizimi o‘zining cheklovlari bilan farq qiladi. Masalan, davlat budjetidan ajratilayotgan mablag‘lar o‘rtacha bo‘lib, innovatsion sohada yuqori samaradorlikka erishish uchun yetarli emas [7].

Ilm-fanni moliyalashtirishni oshirish yo‘llaridagi muammo va tahlil O‘zbekistonda ilm-fanni moliyalashtirishni oshirish yo‘lida bir qator muammolar mavjud:

1. Davlat budjeti orqali ilm-fan sohasiga ajratiladigan mablag‘lar O‘zbekiston ilm-faniga ajratiladigan mablag‘lar davlat budjetidan, asosan, ta’lim va sog‘liqni saqlash sohalariga ko‘proq ajratilmoqda. Ilm-fanni moliyalashtirishni oshirish uchun davlat budjetidan ajratiladigan mablag‘larning miqdorini ko‘paytirish, ularni ilmiy tadqiqotlar va innovatsion loyihalarga taqsimlash zarur. Shu bilan birga, ilmiy markazlar va oliy o‘quv yurtlariga ajratilayotgan mablag‘lar aniq natijalarga erishishga yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak [8].

2. Xususiy sektorning roli Xususiy sektor ilm-fanni moliyalashtirishda yetarlicha faol emas. Buning asosiy sababi ilmiy tadqiqotlar va innovatsiyalarni tijoratlashtirishdagi qiyinchiliklar, xususiy sektor uchun foyda keltirishning aniq ko‘rsatkichlari yo‘qligi hisoblanadi. Shuning uchun xususiy sektorni ilm-fan sohasiga jalb qilish uchun soliq imtiyozlari va boshqa rag‘batlantiruvchi mexanizmlar yaratilishi lozim [9].

3. Xalqaro hamkorlik Mamlakatimiz ilm-fani va texnologiyalarining rivojlanishi uchun xalqaro ilmiy hamkorlikni rivojlantirish, xorijiy grantlar olish va ilmiy tadqiqotlarni xalqaro miqyosda moliyalashtirish masalalari ham muhim ahamiyatga ega. O‘zbekistonning ilmiy markazlari, institutlari uchun xalqaro hamkorlik imkoniyatlarini kengaytirish va xalqaro grantlar olishda yaxshilanishlar bo‘lishi kerak [10].

4. Innovatsion rivojlanish agentligi va jamg‘armalarning faoliyati O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish agentligi va Ilm-fanni moliyalashtirish va innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi ilmiy tadqiqotlar va texnologik innovatsiyalarni rivojlantirishga qaratilgan ko‘plab loyihalarni amalga oshiradi. Ammo, bu tashkilotlarning faoliyati faqat davlat sektorida emas, balki xususiy sektorni ham ilm-fan sohasiga yetarli darajada jalb etishga yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak [11].

Chet el tajribasi shuni ko‘rsatadiki, ilm-fanni moliyalashtirishni oshirishda davlat va xususiy sektorning hamkorligi katta ahamiyatga ega. Masalan, Germaniya va Janubiy Koreyada ilm-fan sohasida xususiy sektor va davlat tomonidan amalga oshiriladigan moliyaviy qo‘llab-quvvatlash samarali tashkil etilgan. Shuningdek, Singapurda ilmiy-tadqiqot ishlarini moliyalashtirishda davlat va xususiy sektorning hamkorligi yuqori darajada samarali bo‘lgan. Bunday tizimlar ilmiy tadqiqotlarni tijoratlashtirish, yangi texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy etish imkoniyatlarini yaratadi [12].

O‘zbekistonda ilm-fanni moliyalashtirishni oshirish uchun davlat, xususiy sektor va xalqaro hamkorlikni rivojlantirish zarur. Ilm-fan va innovatsiyalarni moliyalashtirish tizimini isloh qilish, ilmiy tadqiqotlar va innovatsion loyihalar uchun samarali investitsiyalarni jalb qilish, shuningdek, ilmiy markazlar va xususiy sektor o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish ilm-fanning rivojlanishiga yangi turtki beradi. Davlat tomonidan ishlab chiqilgan normativ-huquqiy hujjatlar va maxsus dasturlar ilm-fanni moliyalashtirishni oshirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi [13].

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. https://uza.uz/posts/637762
2. Шумпетер Й. Теория экономического развития. М 1982 г. 388 с.
3. Логинов В.П., Кулагин А.С. Секреты менеджмента. М., 2008 г. 286 с.
4. https://innofund.uz/
5. “Germaniya va Janubiy Koreyada ilm-fanni moliyalashtirishning samarali tizimlari: Xalqaro ilmiy hamkorlik va grantlar”. 2024 y.
6. S. Tursunov, “Ilm-fanni moliyalashtirishning samarali usullari”, O‘zbek Ilm-Fani, 2025.
7. R. Bahodirov, Ilmiy hamkorlik va xalqaro grantlar. Toshkent: Xalqaro ilmiy hamkorlik, 2025.
8. R. Bahodirov, Ilmiy tadqiqotlar va innovatsiyalarni moliyalashtirish. Toshkent: O‘zbekiston ilmiy akademiyasi, 2024.
9. M. Karimov, “Ilmiy tadqiqotlar va innovatsiyalarni moliyalashtirish usullari”, Innov. Va Iqtisodiyot, 2024.
10. “O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish agentligi va Ilm-fanni moliyalashtirish va innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi faoliyati to‘g‘risida ma’lumotlar”, 2024.
11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktabrdagi “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PF-6097-son farmoni https://lex.uz/docs/5073447
12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 1-apreldagi “Ilm-fan sohasidagi davlat siyosati va innovatsion rivojlantirishdagi davlat boshqaruvini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-5047-son qarori, 2020. https://lex.uz/docs/-5352230
13. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 29-oktabrdagi “Ilm-fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risidagi” O‘RQ-576-son Qonuni, 2019. https://lex.uz/ru/docs/4571490

# YASHIL
IQTISODIYOT&TARAQQIYOT
*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov
**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV
**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir oʻgʻli

**2025. № 4**



© Materiallar koʻchirib bosilganda ""Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida koʻrsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar maʼsul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.



Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna boʻlishingiz mumkin. Obuna boʻlgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga toʻlov haqidagi maʼlumotni skrinshot yoki foto shaklida joʻnatishingizni soʻraymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga joʻnatamiz.

""Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan
Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi boʻyicha roʻyxatdan oʻtkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulugʻbek tumani
Kumushkon koʻchasi, 26-uy.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz